

## **NASRIY ASARLARNI BOSHLANG'ICH SINFLARDA PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA O'RGATISH USULLARI**

**Boboqulova Madina Mirzohid qizi**

Navoiy viloyati Xatirchi tuman yoshlar ishlari agentligi

Qoracha MFY yoshlar yetakchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilariga nasriy (prozaik) asarlarni o'rgatishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari va ahamiyatini yoritishga bag'ishlangan.*

***Kalit so'zlar:** Pedagogika, psixologiya, pedagogik texnologiyalar, kichik guruhlarda ishlash, Klaster usuli, Venn diagrammasi, interfaol o'yinlar.*

### **METHODS OF TEACHING PROSE WORKS IN PRIMARY GRADES ON THE BASIS OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES**

**Bobokulova Madina Mirzohid qizi**

Youth leader of the Karacha MFY at the Khatirchi district youth affairs agency  
of Navoi region

### **ABSTRACT**

*This article is devoted to highlighting the methods and importance of using innovative pedagogical technologies in teaching prose works to primary school students.*

***Keywords:** Pedagogy, psychology, pedagogical technologies, work in small groups, Cluster method, Venn diagram, interactive games.*

### **МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ПРОЗОВЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ НА ОСНОВЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ**

**Бобокулова Мадина Мирзахид кизи**

Карачинский молодежный лидер Хатирчинского районного агентства по  
делам молодежи Навоийской области

### **АННОТАЦИЯ**

*Данная статья посвящена освещению значения и методов использования инновационных педагогических технологий при обучении прозаическим (прозаическим) произведениям учащихся младших классов.*

*Ключевые слова: Педагогика, психология, педагогические технологии, работа в малых группах, кластерный метод, диаграмма Венна, интерактивные игры.*

## **KIRISH**

Boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarning nafaqat bilim olishlari, balki dunyoqarashlari va axloqiy fazilatlarini shakllantirish jarayonida muhim davr hisoblanadi. Ushbu davrda badiiy adabiyot, xususan, prozaik asarlarni o'rganish, bolalarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, nutq madaniyatini boyitish va ma'naviy kamolotga erishishlariga yordam beradi.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Tadqiqot jarayonida Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Ta'lim to'g'risida qonun, Sh.Mirziyoev asarlari, mavzuga doir adabiyotlar hamda internet manbalaridan foydalanildi. Maqolani yozish davomida nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, mantiqiylik tamoyillari qo'llanildi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

**Nasriy asarlarni o'rgatishda pedagogik texnologiyalar** prozaik asarlarni o'rgatish jarayonida o'quvchilarning yoshiga mos, ularning qiziqishlarini uyg'otuvchi metodlardan foydalanish zarur. Quyida asosiy pedagogik texnologiyalar keltirilgan:

### **1. Klaster usuli**

Mazkur usul orqali o'quvchilar asar mazmunini grafik ko'rinishda umumlashtirish imkoniga ega bo'ladilar. Masalan, o'quvchilar matnni o'qib chiqqach, klaster shaklida qahramonlar xatti-harakatlari va xulosalarni ko'rsata oladilar. Bu usul matn mazmunini yaxshi tushunishga yordam beradi.

### **2. "Venn diagrammasi" texnologiyasi**

Venn diagrammasidan foydalanish orqali prozaik asar qahramonlarini qiyoslash mumkin. Masalan, ikki yoki undan ortiq qahramonning xarakter xususiyatlarini aniqlash va ularning o'xshash va farqli jihatlarini ko'rsatish bolalarning tahliliy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

### **3. Interfaol rolli o'yinlar**

Qahramonlarning rollarini ijro etish orqali o'quvchilar matn mazmunini chuqur his qilishadi. Ushbu texnologiya bolalarning ijodkorligini rivojlantirish va o'z fikrlarini erkin ifoda etishlariga yordam beradi.

### **4. Kichik guruhlarda ishlash**

O'quvchilarni kichik guruhlariga bo'lish orqali ularning o'zaro muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish va birgalikda ishlash ko'nikmalarini shakllantirish

mumkin. Masalan, bir guruh asarning bosh qismiga oid savollarga javob bersa, boshqasi qahramonlarning muammolarini aniqlaydi.

Nasriy asarlarni o'rgatishda ko'rgazmalilikning ahamiyati shundan iboratki, boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning ko'rgazmali vositalarga bo'lgan ehtiyoji yuqori bo'ladi. Bu nafaqat tasviriy materiallar (rasmlar, videolar), balki audio vositalarni ham o'z ichiga oladi. Masalan, asar matni qahramonlarining ovoqli ijrosi o'quvchilarda asarga qiziqish uyg'otadi.

O'quvchilarning ongi va tafakkurida mavjud bo'lgan yashirin imkoniyatlarni aniqlash va rivojlantirish kichik maktab yoshidagi bolalarda ta'limning dastlabki davridan boshlab yangi imkoniyatlarni, o'quv materialini muvaffaqiyatli o'zlashtirishgagina emas, balki hayotiy muammolarni yechishga ham tayyorlaydi, o'quvchilarda o'rganish va ta'lim jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Shu bois, boshlang'ich ta'lim sinfdan tashqari o'qish darslarida – SWOT – tahlil metodi, – FSMU texnologiyasi, – Charxpalak, – Svetafor, – Qor parchalari – Tushunchalar tahlili kabi innovatsion texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarda mantiqiy fikrlashni o'stiradi.

Sinfdan tashqari o'qish darslarida suhbat o'qilgan kitobni muhokama qilishda ham, yangi kitob tavsiya qilishda ham qo'llanadi; suhbat elementlari o'qilgan asardan asosiy mazmuni ajratish uchun, voqealar izchilligini, bo'lgan vaqti va o'rnini, bog'lanishini belgilashga yordam beradi. Suhbat uchun savol tuzishda o'quvchilarning mustaqilligi, hayotdan, o'qilgan boshqa kitoblardan qo'shimcha javob berishi hisobga olinadi.

Sinfdan tashqari o'qish darslarida qiziqarli mashqlarga alohida o'rin beriladi. Bunday darslarda adabiy viktorina (bir mavzu ustida savol-javob o'yini), eng yaxshi insholar, illyustratsiyalar, topishmoq topish, konkurslar o'tkazish, topishmoqlar albomini tuzish, tayyorgarliksiz jamoaviy yoki individual ravishda ertak to'qib aytish, o'quvchilar hayoti haqida, yozuvchilarning chuqur ma'noli gap (hikmatli so'z)lari va maqollar, latifalar aytish mumkin. Ba'zan o'qituvchilar bunday darslarda innovatsion texnologiyalaridan "Hazil minuti", "5 sekund o'ylash uchun", "Topishmoqlarni top", "Bilimdonlar klubi" kabi qiziqarli mashg'ulotlarni doimo o'tkazib turadilar.

Innovatsion texnologiyalarni dars jarayonida qo'llash ta'limning an'anaviy tizimidan farqli ravishda innovatsion texnologiyalar asosida o'qish darslarining har bir jarayonida o'quvchining faolligiga asoslangan, mustaqil faoliyati, o'zlashtirish qobiliyatini hisobga olgan holda, ta'lim jarayoniga to'liq jalb etilishi yotadi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalarga asoslangan darsning an'anaviy darsdan farqi shuki, bu darsda o'quvchiga erkinlik muhitini yaratib berishida ko'rinadi. Bu imkoniyat o'quvchiga hech qanday tazyiq o'tkazmasdan, uning shaxsiyatiga

tegmasdan savollar berish orqali do‘stona munosabatdagi o‘quv muhitini yaratishidir. O‘qitishning turli texnologiyalari pedagogik o‘yinlar, qiziqarli boshqotirmalar, rasmi ko‘rinishdagi rebuslar o‘quvchilarda o‘qish darslariga qiziqishlarini orttirish ko‘nikmasini shakllantiradi.

O‘quvchilarda zamonaviy ta‘limni tashkil etishda innovatsion pedagogic texnologiya usullaridan foydalanishning mohiyati-mazmunini tushuntirish, ularda muayyan tasavvurlarni hosil qilishga erishish maqsadga muvofiqdir. Innovatsion pedagogik texnologiyada kutilgan natijaga erishish uchun faqat o‘qituvchi emas, o‘quvchilarning shaxsiy ehtiyojlari, talablari va xislatlariga asoslangan holda, ko‘zda tutilgan maqsad amalga oshirishi va natijali bo‘lishini rejalashni o‘qituvchi o‘z oldiga vazifa qilib qo‘yadi.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, boshlang‘ich sinflarda nasriy asarlarni o‘rgatishda pedagogik texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Bunday yondashuv nafaqat o‘quvchilarning badiiy asarlarni o‘zlashtirish darajasini oshiradi, balki ularda tahliliy fikrlash, ijodiy qobiliyatlar va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu bois o‘qituvchilar innovatsion texnologiyalarni doimiy ravishda takomillashtirishi va dars jarayonida qo‘llashi zarur.

### **REFERENCES**

1. Ta‘lim to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. – T.: O‘zbekiston, 2020.
2. Nishanova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlash. — T.: Fan. 2003.
3. Davletshin M.G. va boshqalar. «Yosh davrlar va pedagogik psixologiya». — T.: TDPU. 2009.
4. R. Mavlonova, N. Raxmonqulova. Boshlang‘ich ta‘limning integratsiyalashgan pedagogikasi. T., 2009-y.
5. Shakhnoza Nodirovna Sulaymonova (2024). IBN MISKAVAYHNING SHARQ FALSAFIY TAFAKKURIDAGI O‘RNI. XXI Asr: Fan va ta‘lim masalalari (XXI век: Вопросы науки и образования), 1 (1), 68-75.
6. Sulaymonova, Shahnoza Nodirovna (2024). “TAHZIBUL AXLOQ” ASARIDAGI AXLOQIYLIK MEZONLARINING HOZIRGI DAVRDAGI KOMIL INSON G‘OYALARI BILAN HAMOHANGLIGI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4 (21), 668-672.
7. Sulaymonova, Shahnoza Nodirovna (2024). BERUNIYNING FALSAFIY QARASHLARIDA EVOLYUTSION G‘OYALAR. *International scientific journal of Biruni*, 3 (1), 256-262.

8. Sulaymonova, Shahnoza Nodirovna (2023). IBN MISKAVAYHNING IJTIMOY-FALSAFIY QARASHLARIDA JAMOAVIY HAMJIHATLIK VA O'ZARO MUHABBAT MASALASI. International scientific journal of Biruni, 2 (2), 203-208.